

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



☎ +998 95 651 90 00
✉ journals@timeedu.uz
📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114
🌐 tmijournals.ndc-agency.uz
✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Technical Sciences, Professor.
2. Akhmedov Khojiakbarxon Dilshotovich – Rector of the Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences (PhD equivalent), Associate Professor.
3. Gulyamov Saidahrar Saidakhmedovich – Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Economic Sciences, Professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich - Professor at the National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers," Doctor of Technical Sciences.
5. Sultanov Mansur Kilichovich – Director General of the "Inno" Innovative Educational and Production Technopark under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation, Doctor of Technical Sciences, Associate Professor.
6. Shamshieva Nargizakhon Nosirkhoja qizi - Secretary of the Council of Tashkent State University of Economics, Doctor of Economic Sciences, Professor.
7. Mukhamedieva Dildora Kabilovna - Professor at Tashkent University of Information Technologies, Doctor of Technical Sciences
8. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Professor at Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Doctor of Economic Sciences.
9. Popkova Yelena Gennadyevna – President of the "Institute of Scientific Communications" of the Russian Federation, Doctor of Economic Sciences, Professor.
10. Dr. Goh Khang Wen – Vice-Rector of INTI International University, Malaysia.
11. Wang Cheng – Associate Professor at the "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" in the People's Republic of China, PhD.
12. Yuldoshev Nuritdin Kurbonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
13. Akramov Tohir Abdirakhmonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
14. Sobirov Azizbek Avazbekovich – Associate Professor at Tashkent State University of Economics, PhD.
15. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Head of the Department of International Scientific Journals and Ratings, Alfraganus University, Candidate of Economic Sciences.
16. Khotamov Ibodullo Sadulloyevich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences.
17. Turakulov Otabek Kholmizrayevich – Head of the Department of Engineering and Information Technologies at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
18. Yuldasheva Saodat Arislanovna – Head of the Department of Economics, Tashkent State Transport University, Candidate of Economic Sciences.
19. Giyosidinov Boburbek Baxtiyorovich - Acting Associate Professor at Tashkent State Transport University, Doctor of Philosophy.
20. Primov Sirojiddin Furqat ugli — Senior Lecturer at the Department of Business Management and Finance, Tashkent Institute of Management and Economics, PhD in Economics.

MUNDARIJA

Radjabov B.A.	Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribalari	3
Xakimov Z.A. Xidoyatov M.B.	O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	10
Soliyev D.J. Oxunova D.O.	O'zbekistonda islomiy moliya munosabatlarini joriy etish: muommo va yechimlari	18
Abdulfattoxonova X.	Sun'iy intellekt texnologiyalarining menejmentdagi qo'llanilishi: Imkoniyatlar va xavflar	25
Otaboyev F.O.	Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish nazariyalari evolyutsiyasi va xalqaro kapital parakatini tartibga solish	31
Sharipov Sh.X.	Smart purkagichlar texnologiyalarining adabiy tahlili	44
Mamasoatov D.R.	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	49
Han Zihao	A study on the impact of china-uzbekistan transportation connectivity projects on regional trade costs (e.g., the china-kyrgyzstan-uzbekistan railway)	54
Zhang Shaojie	A study on the economic effects of chinese aid in promoting the modernization of education in uzbekistan	61
Wang Anning	Trade Characteristics of Uzbekistan's Imports of Fruit and Vegetable Agricultural Products from Xinjiang, China	69
Omonturdiyev O.E.	O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish istiqbollari	82
Xaydarov S.X.	Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli bank xizmatlarining o'рни va bunda xorijiy mamlakatlar tajribasi	86
Sobirov A.A.	Marketing ekotizimini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari	92
Akramov T.A.	Korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish asosida raqobatbardoshligini oshirish	99
Abduraxmonova F.N.	To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish	107
Ботиров Л.Б. Хамидова Н.И.	Порядок организации системы бухгалтерского учета в промышленности строительных материалов	112
Hakimov A.L. Bozorboev X.T. Suyunov Y.B.	Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or xorijiy tajribalar tahlili	117
Сайдалиева Г.А.	Қишлоқ хўжалиги ерларини баҳолаш ва унинг натижаларидан фойдаланишнинг назарий ва услубий асослари	127
Mullajonov I.T.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari	136
Qudratxo'jayev A.Q.	Sanoat korxonalari faoliyatini aylanma iqtisodiyot modeli asosida takomillashtirish	143

O'ZBEKISTONDA BIZNESNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY RESURLARNI OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrası mudiri.

e-mail: esboevsardor633@gmail.com

Orcid:0009 0000 2302 6201

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida biznes sub'ektlarini boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirishning nazariy-amaliy jihatları tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy menejmentni raqamlashtirish, investitsiya faoliyatini faollashtirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, milliy biznes muhitining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes boshqaruvi, moliyaviy resurslar, samaradorlik, moliyaviy menejment, investitsiya, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of improving business management efficiency and optimizing financial resources in the economy of Uzbekistan. The study examines the development of corporate governance systems, digitalization of financial management, enhancement of investment activity, and mechanisms for the efficient use of financial resources. The current state of the business environment is assessed, key challenges are identified, and scientific conclusions and practical recommendations are proposed.

Keywords: business management, financial resources, efficiency, financial management, investment, digital economy.

Аннотация: В данной научной статье анализируются теоретические и практические аспекты повышения эффективности управления бизнесом и оптимизации финансовых ресурсов в экономике Республики Узбекистан. В процессе исследования рассмотрены вопросы совершенствования системы корпоративного управления, цифровизации финансового менеджмента, активизации инвестиционной деятельности, а также механизмы рационального использования финансовых ресурсов. Выявлены ключевые проблемы современной бизнес-среды и разработаны научные выводы и практические рекомендации по их решению.

Ключевые слова: управление бизнесом, финансовые ресурсы, эффективность, финансовый менеджмент, инвестиции, цифровая экономика.

Kirish.Hozirgi globallashuv va raqobat sharoitida biznesni samarali boshqarish hamda moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati

va investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari biznes sub'ektlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan.Shu bilan birga, korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy yondashuvning yetarli darajada emasligi, moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish, likvidlik va rentabellik

muammolari saqlanib qolmoqda. Ushbu holat mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Biznesni boshqarish samaradorligining nazariy asoslari. Biznesni boshqarish samaradorligi deganda, korxona maqsadlariga erishishda mavjud resurslardan minimal xarajatlar bilan maksimal natija olish tushuniladi. Samaradorlikni oshirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: strategik rejalashtirish tizimining mavjudligi; korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya etish; zamonaviy menejment usullaridan foydalanish; inson kapitali va innovatsion salohiyatni rivojlantirish. O'zbekiston korxonalari misolida ko'p hollarda qisqa muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlari ustunlik qilib, uzoq muddatli strategik rivojlanish rejalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Moliyaviy resurslarni optimallashtirishning iqtisodiy mohiyati. Moliyaviy resurslarni optimallashtirish — bu korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. U quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: kapital tuzilmasini optimallashtirish; aylanma mablag'larni samarali boshqarish; investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash; xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish. Amalda ko'plab biznes sub'ektlarida moliyaviy rejalashtirish zaif yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu likvidlik muammolari va qo'shimcha moliyaviy tavakkalchiliklarga olib kelmoqda.

O'zbekistonda biznes boshqaruvi va moliyaviy menejmentning hozirgi holati. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki

mahsulotda salmoqli ulushga ega. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Biroq: moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi; zamonaviy moliyaviy tahlil vositalaridan kam foydalanish; raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarining cheklanganligi kabi muammolar mavjud. Bu holat biznesni boshqarish samaradorligini oshirishda tizimli islohotlar zarurligini ko'rsatadi. Biznes boshqarish samaradorligini oshirishda, quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi: korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish; moliyaviy menejmentni raqamlashtirish; byudjetlashtirish va moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish; xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish. Ushbu chora-tadbirlar korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlab, uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Amaliy statistik tahlil (O'zbekiston misolida). So'nggi yillarda O'zbekistonda biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznesning YaIMdagi ulushi 2020 yilda 54 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 56–57 % darajasiga yetgan. Bu holat mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar hamda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarining ijobiy natijalarini aks ettiradi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki,

bank kreditlarining 30-35 % qismi kichik biznes sub'ektlari hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur kreditlarning asosiy qismi aylanma mablag'larni to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, investitsiyaviy maqsadlar uchun ajratilayotgan moliyaviy resurslar ulushi nisbatan

cheklanganligicha qolmoqda. Bu esa korxonalarda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi (umumlashtirilgan ma'lumotlar)

№	Ko'rsatkich nomi	2020 yil	2024 yil
1	Kichik biznesning YaIMdagi ulushi (%)	54	56-57
2	Band aholining kichik biznesdagi ulushi (%)	70 dan ortiq	70 dan ortiq
3	Bank kreditlarida kichik biznes ulushi (%)	30-35	30-35

Izoh:

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi hamda Markaziy bankning 2020-2024 yillardagi

umumlashtirilgan rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni (umumlashtirilgan ma'lumot)

№	Кўрсаткич номи	Улуши (%)
1	ЯИМдаги улуши	56-57
2	Банд аҳолининг улуши	70 % дан ортиқ
3	Банк кредитларидаги улуши	30-35

Mazkur ko'rsatkichlar moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va

Amaliy taklif va tavsiyalar. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish. Biznes sub'ektlarida kuzatuv kengashi va ijroiya organlari faoliyati o'rtasida aniq vakolatlar taqsimotini joriy etish, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini

investitsiyaviy yo'nalishlarni kengaytirish zarurligini anglatadi.

kuchaytirish lozim. Moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirishni joriy etish. Korxonalarda o'rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalarni ishlab chiqish, xarajatlar va daromadlar ustidan muntazam nazoratni ta'minlash moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Moliyaviy menejmentni raqamlashtirish. ERP, CRM va moliyaviy tahlil dasturlarini joriy etish orqali hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, qaror qabul qilish sifatini yaxshilash

mumkin. Investitsiya faoliyatini rag'batlantirish. Uzoq muddatli va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan imtiyozli kreditlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Tadbirkorlar va moliyaviy menejerlar uchun malaka

Xulosa. O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Samarali

oshirish kurslari va amaliy treninglar tashkil etish biznes qarorlarining sifatini yaxshilaydi. Xalqaro standartlarni joriy etish. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) bosqichma-bosqich tatbiq etish orqali korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish mumkin.

korporativ boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va raqamli moliyaviy menejment usullarini joriy etish orqali biznes sub'ektlarining raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: Farmon. – Toshkent, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida: Farmon. – Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Statistik to'plam. – Toshkent, 2020–2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2020–2024.
5. Porter M.E. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. – New York: Free Press, 2008. – 397 p.
6. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. *Financial Management: Theory and Practice*. – Boston: Cengage Learning, 2020. – 824 p.
7. Ross S.A., Westerfield R., Jordan B.D. *Corporate Finance*. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 720 p.
8. OECD. *SME and Entrepreneurship Policy in Uzbekistan*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
9. World Bank. *Uzbekistan: Country Economic Update*. – Washington, DC, 2022.
10. IMF. *Uzbekistan: Financial Sector Assessment Report*. – Washington, DC, 2021.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114